

**ZAMONAVIY TALABA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA INDIVIDUAL  
TA'LIMNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**  
**Gayupova Saodat Xamidovna**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy talaba shaxsni shakllantirishda individual ta'limg'itmoiy yo'nalganligi, uning tarkibiy qismi ekanligi, shaxsga yo'naltirilgan texnologik omillari, maqsad va mazmun uyg'unligini ta'minlaydigan pedagogik yondashuv kombinatsiyasini muvofiqligi, individual yondashuv ta'limg'arayonlarining barcha bug'unlarida muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligi tahlil etilgan.*

*Kalit so'zlar: OTM, shaxs psixologiyasi, pedagogika, zamonaviy talaba, individual yondashish, individual ta'limg', ijtimoiy yo'nalganlik, pedagogik kombinatsiya, shaxs xususiyatlari, o'qitish va tarbiyalash tamoyillari, motiv, ta'limg' texnologiyasi.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В  
ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА**

Гаюпова Саодат Хамидовна  
*Независимый исследователь Чирчикского государственного  
педагогического университета*

*Аннотация: В данной статье рассматривается социальная направленность индивидуального образования в формировании личности современного школьника, его составляющая, технологические факторы, ориентированные на личность, сочетаемость сочетания педагогического подхода, обеспечивающего гармонию целей и содержания., а также то, что индивидуальный подход имеет важное педагогическое значение на всех этапах образовательного процесса.*

*Ключевые слова: высшее образование, психология личности, педагогика, современный студент, индивидуальный подход, индивидуальное образование, социальная направленность, педагогическое сочетание, особенности личности, принципы обучения и воспитания, мотивация, образовательная технология.*

**PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF INDIVIDUAL EDUCATION IN THE  
FORMATION OF THE PERSONALITY OF A MODERN STUDENT**

Gayupova Saodat Khamidovna  
*Researcher of Chirchik State Pedagogical University*

*Annotation: In this article, the social orientation of individual education in the formation of the personality of a modern student, its component, technological factors oriented to the individual, the compatibility of the combination of the pedagogical approach that ensures the harmony of goals and content, and the fact that the individual approach has an important pedagogical value in all stages of the educational process are analyzed.*

*Key words: higher education, personality psychology, pedagogy, modern student, individual approach, individual education, social orientation, pedagogical combination, personality characteristics, principles of teaching and upbringing, motivation, educational technology.*

Kirish. Ta'limg'izimda yangi yondashuv va standartlarning joriy etilishi ta'limg' sifati va samaradorligini ortishiga olib keladi hamda talabalarning rivojlanishi uchun ijtimoiy pedagogik vaziyatlarni yaratadi, ular uchun ahamiyatga ega bo'lgan, yosh xususiyatlariga mos keladigan omillarni ta'limg'da namoyon bo'lish va ijtimoiy o'zini o'zi anglashini ta'minlaydi.

OTMLarda zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan yangicha yondashuv va standartlarning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri individual ta'limg'arayonidir.

Individual ta'limg' ijtimoiy yo'naltirilgan ta'limg'ning tarkibiy qismi bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan texnologik omillarga muvofiq tashkil etiladigan, maqsad va mazmun uyg'unligini ta'minlaydigan pedagogik yondashuv kombinatsiyasini muvofiqligini yuzaga chiqaradi.

Individual yondashuv ta'limg'arayonlarining barcha bug'unlarida muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, ta'limg' oluvchiga xos bo'lgan tipologik xususiyat, temperamenti va xarakteri, qobiliyati va moyilligi, motivi, qiziqishi va shuningdek shaxsga xos bo'lgan boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalash tamoyillariga muvofiq ta'limg' dasturlarini tashkil etishni nazarda tutadi.

Ta'limda individual yondashuv ta'lim oluvchini har jihatdan o'rghanish va unga pedagogik ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydigan omil bo'lib, ta'lim oluvchiga o'zini anglash, individual yo'nalganligini aniqlashtirish, etakchi o'quv faoliyatini motivlashtirish, o'z imkoniyatlarini baholash, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, amaliyotda ichki ziddiyatlar natijasida yuzaga keladigan ruhiy azoblarni engib o'tish kabi ko'nikmalarни shakllantirish va malakanı oshirishda boshqa etakchi ta'lim texnologiyalaridan samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

V.I.Gorovaya nuqtai nazaricha individual yo'naltirilgan ta'lim ijtimoiy pedagogik jarayon bo'lib, anglangan faoliyatni maqsad sari yo'nalganligini ta'minlagan holda, haqiqiy ijtimoiy-madaniy ta'lim holatinning nomutanosibligi sharoitida ham, ta'lim samaradoligiga xizmat qiladigan yondashuv bo'lib, ta'lim oluvchi manfaatini birinchi o'ringa qo'yadi va individual harakatlanish jarayonini «ichkaridan» uyg'unlashtirishga imkon beradi. [6]

Ta'kidlashmiz lozimki individual yo'naltirilgan ta'lim jarayoni muhim ahamiyat kasb etib, zamnaviy talaba shaxsini shakllantirishga, unda mobil xususiyatlarni qaror toptirishda hamda amalga oshirilayotgan o'quv jarayoniga nisbatan anglangan faoliyatni yo'naltirishda pedagogik imkoniyatlarini o'ziga xos jihatlarini ochib beradi. Shu nuqtai nazaridan OTMda individual yo'naltirilgan ta'limning maqsadi ta'lim standartlari asosida berilayotgan bilimlarni kafolatlangan natijalariga erishish, talaba o'z-o'zini mustqil tarbiyalash, bilish faoliyatini faollashtirish, o'quv va kognitiv faoliyat ko'nikmalarini rivojlanirish, o'zlashtirilgan nazariy bilmilarni amaliy faoliyatga konvertatsiya qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, talabalarning ta'lim olishga bo'lgan moyilligini rag'batlantirib, qiziqishlarini oshirishga hamda maxsus qobiliyatlarini hisobga oladigan individual yo'naltirilganlik, zamnaviy ta'lim mazmunini belgilaydi. Individual yo'naltirilgan ta'lim tizimi har bir mashg'ulot jarayonida talabaning imkoniyati, qiziqishi va ehtiyojlariga moslashtirishi kerak. Individual yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish ma'lum uslubiy sharoitlar bilan muvofiqlashtirib borishni taqozo etadi. Bunda asosiy e'tibor professor-o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi bilan uziy bog'iq bo'lib, individual va guruhiy ishslash qobiliyatini professional holda ta'lim jarayonida namoyon etishi talab etiladi. Bunda pedagog talabaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishi, juftlik va guruhiy jarayonlarda ishtirokini muvofiqlashtirib borishda kombinatsion metodik yondashuvlardan maqsadli foydalangan holda individual ta'lim traektoriyasini yo'naltirib borish hamda murakkablikdan oddiylikka tamoyili asosida tashkillashtirishi talab etiladi.

Individual yo'naltirilgan ta'limning asosini "tushunish pedagogikasi" va "anglatish pedagogikasi" degan yangicha yondashuv asosida shakllantirish bugungi kunda peagogika fani oldida turgan dolzarb msalalardan biri bo'lib, zamnaviy talaba shaxsini shakllantirish imkoniyatlarini yanada oshirishga olib keladi.

"Tushunish pedagogikasi" va "anglatish pedagogikasi" mantiqiy-tahliliy kompetensiyaviy jarayoniga asoslangan ta'limning pedagogik tizimi tushunilishi lozim bo'lib, bu jarayonda ta'lim sub'ekatlari anglangan faoliyati tamoyillariga asoslangan pedagogik texnologiya va usul va vositalardan maqsadli hamda samarali foydalananishni fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda konsentratsion omillariga muvofiqlashtirish talab etiladi.

Ushbu yondashuv umumiyyidan xususiyga o'tish tamoyiliga muvofiqlashtirilgan bo'lib ta'lim oluvchini individual yo'nalgaligi mohiyatiga e'tibor qaratadi. Individual yo'naltirilganlikning mohiyati - individual o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, ta'lim oluvchining tipologik xususiyati va iqtidoridan kelib chiqqan holda ta'lim "mahsulotari" bilan ta'minlanish va to'yintirilish mezoniga muvofiqlashtriladi. Bunda talabaning ta'lim oshirishga bo'lgan qiziqishi, mutaxassislikka nisbatan shakllangan layoqati, o'zlashtirish qobiliyati, o'zini o'zi takomillashtirish moyilligi, o'z oldiga qo'ygan maqsad sari intilishga bo'lgan irodaviy sifatlarni tarbiyalash, shaxsini rivojlanirish, istiqbolli hayotiy rejalarini mustaqil ishlab iqish, mustaqil maqsadlarga erishish yo'llarini aniqlash hamda diplomatik kommunikativ faoliyatni shakllantirish sifatlarini o'zida qaror toptirish omillariga e'tibor qaratiladi. Bu esa individual ta'limning metodologik qadriyat tushunchasi sifatida baholanishi maqsadga muvofiqli.

Shu kungacha ta'lim jarayonlarida individual ta'lim bilan bog'liq "individual ta'lim, ta'lim oluvchining bilimsizlik darajasini aniqlash" degan aksioma bo'lib kelgan tushunchaga biz ratsional yondashuv lozim degan ilmiy mulohazani ilgari suramiz. Bizningcha, individual ta'lim komponentlari ta'lim oluvchining bilimsizlik darajasini aniqlash emas, balki ta'lim faoliyati va uni tashkillashtirish jarayonida ta'lim oluvchi o'zini o'zi boshqarish, mukammalashtirish, o'zidagi noyob qobiliyatlarini tarbiyalash motiviga ega bo'lishi zarur bo'lgan individual va ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish kompetentligiga yo'naltirilgalikni ta'minlashi lozim.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayonidagi individual yondashuv talabaning pedagogik va

psixologik jihatdan o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan antipatik omillarni profilaktik jarayonlarini ta’minlab, ularning ruhiy va jismoniylarini toliqishi, qobiliyatlarini tarbiyalash, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, o‘zlashtirish tezligi va hajmiga mos ravishda topshiriqlarni muvofiqlashtirish imkoniyatini ta’minlaydi. Shuningdek, individual ta’lim doirasida belgilab olingen asosiy yo‘nalishlardan biri, zamonaviy talabaning tasavvurni kengaytirish, kreativligini oshirish, tahliliy kopetensiyasini shakllantirish, defrensial yondashuvlarini rivojlantirish, analiz va sintez qilish malakasini qaror toptirish, manfaatlarini farqlash, vaqtadan oqilona foydalanish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish kabi sifatlarini shakllantiradi.

Xulosa va takliflar. Bu esa individual ta’lim berish pedagogikasining asosiy faoliyat turi hisoblanib, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni ustuvor masalalaridadir. Fandagi yondashuvlar, texnologiyalar, metodikalar, shakllar va vositalarning muvaffaqiyati, pirovardida, ta’lim sifatini oshirishga qo‘sghan hissasi bilan baholanadi. Shunday ekan, ta’lim sifati bu pedagogikaning fundamental va substansional tadqiqot masalasi bo‘lib, ta’limning boshqa komponentlari unga nisbatan vosita sifatida qaraladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

Ananev B.G. Pedagogicheskie prilozheniya sovremennoy psixologii [Tekst] / B.G. Ananев // Krestomatiya po vozrastnoy i ped. psixologii. Raboty sovetskix psixologov perioda 1946–1980 gg. / pod red. I.I. Ilyasova, V.Ya. Lyaudis. – M., 1981.

Vaxromov Ye.E. Samoaktivatsiya i jiznennyyu put cheloveka [Tekst] / Ye.E. Vaxromov // Sovrem. problemy smysla jizni i akme. – M.: PIRAO, 2002. – S. 147–164.

Gamezo, M.V. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya [Tekst] / M.V. Gamezo, Ye.A. Petrova, L.M. Orlova. – M.: Ped. ob-vo Rossii, 2003. – 512 s.

Gayupova S.X. Analiz psixologii i povedeniya studentov pedagogicheskogo vuza // Ekonomika i sotsium. №1(92) 2022.

Gayupova S.X. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri doirasida talabalar shaxsini shakllantirishning psixologik masalalari / Pedagogik t’lim klasteri:muommo va echimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanı ilmiy ishlar to‘plami. Chirchiq, 2020. -B.180-182.

Gorovaya V.I. Individualno orientirovannoe obuchenie kak sovremennaya obrazovatelnaya texnologiya [Tekst] / V.I. Gorovaya, N.F. Petrova // Mejdunarodnyy jurnal eksperimentalnogo obrazovaniya. – 2010. – № 7. – S. 75–76.

Sovremennye tendensii razvitiya obrazovaniya v vedyushchikh stranax mira [Tekst] // Vyssh. shk.: sravnit. issled., zarubejnyyu oryt. – Vyp. 1. – M., 1994.

Hedges, C. Empire of Illusion. The End of literacy and the Triumph of Spectacle [Text] / C. Hedges. – N. Y.: Nation Books, 2009. – 217 p